Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS

Maftunaxon Tavakkaljon qizi Turg‘unova*
Farg‘ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
✉ bahodirovamaftuna005@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda kechgan milliy uyg‘onish jarayonining faol ishtirokchilaridan biri, jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, huquqshunos, jamoat va siyosat arbobi Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning hayoti va faoliyati tahlil qilinadi. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning ma’rifatparvarlik, huquqiy ong, milliy matbuot, siyosiy tashkilotchilik va Turkistonning siyosiy kelajagi haqidagi qarashlari uning zamonasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Ayniqsa, uning “Sadoi Turkiston” gazetasini tashkil etishi, “Turon” jamiyatidagi faoliyati, 1916-yilgi mardikorlikka olish siyosatiga qarshi kurashdagi ishtiroki, “Sho‘royi Islomiya” faoliyatidagi o‘rni hamda Turkiston Muxtoriyati bilan bog‘liq siyosiy jarayonlardagi faoliyati alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sovet davridagi siyosiy ta’qiblar va qatag‘on siyosatining jadidlar taqdiriga ta’siri, tarixiy xotirani tiklashning milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Ubaydulla Xo‘jayev, jadidchilik, milliy uyg‘onish, Turkiston, “Sadoi Turkiston”, “Sho‘royi Islomiya”, Turkiston Muxtoriyati, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, qatag‘on, ma’naviy meros.

DOI: 10.5281/zenodo.23279289

Kirish

Har bir xalqning tarixiy xotirasi uning milliy o‘zligini anglashida muhim ma’naviy omillardan biridir. Ayniqsa, siyosiy tazyiq va mafkuraviy bosimlar natijasida o‘zining ko‘plab ma’rifatparvar, ziyoli va millatparvar farzandlaridan ayrilgan xalqlar uchun tarixiy xotirani tiklash nafaqat ilmiy, balki ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. O‘zbekiston tarixida XX asrning birinchi yarmi ana shunday murakkab va fojeali davrlardan biri bo‘ldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Mustamlakachilik sharoitida xalqning iqtisodiy va siyosiy huquqlari cheklangan, ta’lim tizimida eskicha usullar ustun bo‘lgan bir paytda yangi fikrlovchi ziyolilar avlodi shakllandi. Ular xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fanni egallash, milliy matbuotni rivojlantirish, huquqiy va siyosiy ongni yuksaltirish hamda jamiyatni isloh qilish g‘oyalarini ilgari surdilar.

Bu tarixiy jarayon “jadidchilik” nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning namoyandalari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev kabi ko‘plab ziyolilar alohida o‘rin egallaydi.

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev ana shu milliy uyg‘onish harakatining o‘ziga xos vakili edi. U nafaqat ma’rifatparvar, balki huquqshunos, jurnalist, siyosiy tashkilotchi va jamoat arbobi sifatida faoliyat olib bordi. Manbalarda u 1878-yilda Toshkentda tug‘ilgani, rus-tuzem maktabida ta’lim olgani va keyinchalik Saratovda huquqshunoslik bo‘yicha tahsil olgani qayd etiladi. U dastlabki o‘zbek huquqshunoslaridan biri sifatida ham tilga olinadi.

Uning hayot yo‘li bir shaxsning tarjimai holi doirasidan ancha kengroq mazmunga ega. Ubaydullaxo‘ja

Asadullaxo‘jayev faoliyati orqali Turkiston jadidlarining milliy uyg‘onish, huquqiy tenglik, matbuot erkinligi, ma’rifat va siyosiy o‘zini o‘zi boshqarish haqidagi qarashlarini ko‘rish mumkin.

Asosiy qism

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning shakllanish davri va huquqshunos sifatidagi faoliyati

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev 1878-yilda Toshkentda tug‘ilgan. Dastlab rus-tuzem maktabida 4 yil ta’lim olgan va bu uning rus tilini va o‘sha davr ma’muriy-huquqiy muhitini yaxshi tushunishiga imkon bergan. Keyinchalik Saratovdagi huquqshunoslik ta’limi uning dunyoqarashi shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi. Manbalarda uning 1908–1912-yillarda Rossiyaning Saratov shahrida huquqshunoslik bo‘yicha tahsil olgani ko‘rsatiladi.

Huquqshunoslik kasbi Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev faoliyatida oddiy professional yo‘nalish bo‘lib qolmadi. Aksincha, u huquqni jamiyatdagi adolatsizliklarni fosh etish, inson huquqlarini himoya qilish va mahalliy aholining qonuniy manfaatlarini ifodalash vositasi sifatida ko‘rdi.

1913-yilda Toshkent okrug sudida xususiy advokat sifatida faoliyat olib borgan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev amaldorlarning noqonuniy xatti-harakatlari va poraxo‘rlik holatlariga qarshi chiqgani bilan ajralib turgan. Manbalarda uning ayrim mansabdorlarning noqonuniy faoliyatini fosh etishga va ularning lavozimidan chetlatilishiga erishgani qayd etiladi.

Bu jihat uning keyingi siyosiy faoliyatini tushunishda muhimdir. Chunki Ubaydullaxo‘ja uchun milliy taraqqiyot faqat madaniyat va ta’lim masalasi emas, balki huquqiy adolat bilan ham chambarchas bog‘liq edi.

Uning dunyoqarashi shakllanishida Rossiya imperiyasining siyosiy-huquqiy tizimi, Turkistonning mustamlaka holati va zamonaviy taraqqiyot g‘oyalari muhim rol o‘ynadi. Talabalik davridayoq u davr muammolari bilan qiziqqani, hatto rus adibi Lev Tolstoy bilan yozishmalar olib borgani haqida ma’lumotlar mavjud.[1]

Shu tariqa Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev faoliyatida huquqshunoslik va milliy uyg‘onish g‘oyalari bir-birini to‘ldirib bordi.

Jadidchilik harakatida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning o‘rni

Jadidchilik Turkiston tarixida faqat yangi usul maktablarini tashkil etish bilan cheklanmagan keng ma’rifiy va ijtimoiy harakat edi. Jadidlar ta’limni isloh qilish bilan bir qatorda, milliy matbuot, teatr, adabiyot, iqtisodiyot, huquq, davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyoti masalalarini ham muhokama qildilar.

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev ham jadidchilik harakatining faol vakillaridan biriga aylandi. 1913-yilda u “Umid” deb atalgan ilg‘or musulmon guruhiga rahbarlik qilgani, “Turon” jamiyatining asoschilaridan biri bo‘lgani haqida ma’lumotlar mavjud.[2]

Bu tashkilotchilik faoliyatining mohiyati shundan iborat ediki, o‘sha davr ziyolilari xalqning ijtimoiy faolligini oshirish, ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalarini keng yoyish uchun turli jamoat tashkilotlarini yaratishga intildilar.

Ubaydullaxo‘ja faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri — ma’rifat bilan siyosiy ongni bir-biridan ajratmaganidir. Uning qarashlarida jamiyatni taraqqiy ettirish uchun savodxonlik, huquqiy bilim, matbuot va fuqarolik faolligi zarurligi ko‘zga tashlanadi. Shu sababli Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevni faqat jadid jurnalisti yoki siyosiy arbob sifatida emas, balki Turkistonda zamonaviy huquqiy va siyosiy tafakkur shakllanishiga hissa qo‘shgan ziyoli sifatida ham baholash mumkin.

“Sadoi Turkiston” va milliy matbuot taraqqiyoti

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning tarixiy merosida “Sadoi Turkiston” gazetasi alohida o‘rin tutadi. Gazeta 1914-yil 4-apreldan Toshkentda nashr etila boshlagan va Ubaydullaxo‘ja uning tashkilotchisi hamda muharriri bo‘lgan. Nashr faoliyatiga Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Muzaffarov kabi ma’rifatparvarlar jalb qilingan.

SADOI TURKISTON“ („Turkiston ovozi“) — jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy gazetasi. 1914-yil 4-apreldan 1915-yil 10-aprelga qadar Toshkentda o‘zbek tilida nashr qilingan. Gazetaning ilk soni hijriy hisob bilan 1332-yil jumodul-avval oyining 21-sida (milodiy 1914-yil 4-aprelda) juma kuni chop etilib, uning birinchi sahifasida keltirilishicha obuna bahosi Rusiya fuqarolari (jumladan, turkistonliklar uchun ham) bir yilga 4 so‘m, olti oyga 2 so‘m 50 tiyin, uch oylik 1 so‘m 50 tiyin etib belgilangan. Shuningdek, xorijliklar uchun ham obuna narxlari ko‘rsatilgan: yillik 6 so‘m, olti oylik 3 so‘m 50 tiyin, gazetaning bir nusxasi esa 5

tiyin. [3]

[1] Begali Qosimov. “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoiylik” nomli monografiyasi

[2] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi

„Sadoyi Turkiston“ V. M. Ilinning xususiy bosmaxonasida, har bir soni o‘rtacha 1000 nusxadan chop qilingan, obuna va chakana savdo yo‘li bilan tarqatilgan. Gazetani haftada 2 marta chiqarish ko‘zlangan bo‘lsada, ammo bunga erishilmagan. Gazeta haftada 1 marta 4 sahifada bosilgan. “Sadoi Turkiston” o‘sha davr uchun oddiy axborot vositasi emas edi. Gazeta orqali jamiyatning eng dolzarb masalalari — maorif, madaniyat, milliy taraqqiyot, mustamlakachilik siyosati, xalqning ijtimoiy ahvoli va huquqiy muammolari haqida fikr yuritildi.

Milliy matbuotning paydo bo‘lishi Turkiston jamiyatida yangi ijtimoiy fikr maydonining shakllanishiga xizmat qildi. Gazeta orqali ziyolilar o‘z qarashlarini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev matbuotni xalqni uyg‘otish va jamiyatni isloh qilish vositasi sifatida ko‘rgan jadidlar safida bo‘ldi. “Sadoi Turkiston” sahifalarida mustamlakachilik siyosatining salbiy jihatlari tanqid qilindi. Shu sababli gazeta uzoq vaqt faoliyat yurita olmadi va 1915-yil aprel oyida yopildi.

Biroq nashrning qisqa faoliyati ham Turkiston ijtimoiy tafakkuri tarixida muhim iz qoldirdi. Matbuot orqali shakllangan milliy fikr keyingi siyosiy jarayonlarda, xususan, 1917-yildagi milliy tashkilotlar va siyosiy harakatlarda namoyon bo‘ldi.

1917-yil va milliy siyosiy tashkilotchilik

1917-yil Rossiya imperiyasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar Turkiston xalqlari uchun ham yangi imkoniyatlar yaratdi. Fevral inqilobidan keyin siyosiy tashkilotlar tuzish, matbuot nashr etish va jamoat yig‘inlarini o‘tkazish imkoniyatlari kengaydi.

Turkiston jadidlari milliy manfaatlarni ifoda etadigan siyosiy tashkilotlar tuzishga kirishdilar. 1917-yil 14-martda Toshkentda “Sho‘royi Islomiya” tashkiloti tuzildi. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev ushbu tashkilot faoliyatida muhim o‘rin egalladi va keyinchalik uning raisi etib saylandi.

“Sho‘royi Islomiya” Turkiston musulmonlarining siyosiy va ijtimoiy manfaatlarini muvofiqlashtirish, islohotlarni ilgari surish hamda xalqning siyosiy faolligini oshirishga intilgan tashkilotlardan biri edi. Tashkilot faoliyatida Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mustafo Cho‘qay va boshqa taniqli ziyolilar ham qatnashgan. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning ushbu tashkilotdagi faoliyati uning siyosiy tajribasi va tashkilotchilik qobiliyatini ko‘rsatadi. 1917-yilda Turkistonning kelajagi, milliy boshqaruv, muxtoriyat, ta’lim va mahalliy hokimiyat masalalari keng muhokama qilindi. Turkiston ziyolilari o‘lka aholisi manfaatlarini hisobga oladigan siyosiy boshqaruv tizimini shakllantirishga intildilar.

[3] “Sadoi Turkiston” gazetasi

Turkiston Muxtoriyati va milliy davlatchilik g‘oyasi

1917-yil oxirida Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati tashkil etilishi Turkiston tarixidagi eng muhim siyosiy voqealardan biri bo‘ldi. Muxtoriyatning vujudga kelishi o‘lka ziyolilarining siyosiy o‘zini o‘zi boshqarish va milliy davlatchilik haqidagi qarashlari amaliy siyosiy jarayonga aylanganini ko‘rsatdi. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev Turkiston Muxtoriyati bilan bog‘liq siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan arboblardan biri sifatida tilga olinadi. Ayrim manbalarda u Muxtoriyat hukumatida harbiy vazir lavozimini egallagani ko‘rsatiladi.[4]

Muxtoriyat qisqa muddat, ya‘ni 72 kun faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, bu uning tarixiy ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, u Turkiston xalqlarining o‘z siyosiy kelajagini o‘zi belgilashga bo‘lgan intilishlarini ifoda etgan tarixiy tajriba sifatida o‘rganiladi. Ubaydullaxo‘ja faoliyatining mazkur bosqichi uning siyosiy qarashlarida milliy manfaat, qonuniy boshqaruv, vakillik va muxtoriyat masalalari muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi.

Muxtoriyatning tugatilishidan keyingi davrda uning ishtirokchilari va tarafdorlari turli ta’qiblarga uchradi. Ubaydullaxo‘ja ham siyosiy bosimdan chetda qolmadi.

Qatag‘on siyosati va Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev taqdiri

XX asrning 20–30-yillarida sovet siyosiy tizimining kuchayishi bilan Turkistonning milliy ziyolilariga nisbatan nazorat va ta’qiblar ham kuchaydi. Jadidlarning milliy uyg‘onish, ma’rifat, milliy o‘zlik va siyosiy mustaqillik haqidagi qarashlari sovet mafkurasi bilan ziddiyatga kelgan holatlar mavjud edi. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev ham siyosiy ta’qiblarga uchragan jadid arboblaridan biridir. Tarixiy manbalarda uning 1920–1930-yillarda bir necha bor tazyiqqa uchragani qayd etiladi. Uning hayotining so‘nggi davri haqida manbalarda tafovutlar uchraydi. Ayrim manbalar Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevni 1937-yilda qatag‘on qilinib, otib tashlangan deb ko‘rsatadi. Boshqa tadqiqot va ma’lumotlarda esa uning 1931-yilda surgun qilingani, keyinchalik ozod etilgani va 1942-yilda Kotlasda vafot etgani haqida ma’lumotlar keltiriladi.[5]

Qatag‘onning eng katta fojeasi faqat insonlarning hayotiga tajovuz qilish bilan cheklanmagan. Qatag‘on natijasida millatning ilmiy, siyosiy va ma’naviy salohiyatiga ham katta zarar yetgan. Ziyolilar faoliyati to‘xtatilgan, asarlari va nomlari uzoq vaqt davomida jamoatchilik xotirasidan siqib chiqarilgan.

Shu sababli qatag‘on tarixini o‘rganish — faqat o‘tmishdagi voqealarni sanab o‘tish emas. Bu milliy tafakkur qanday sharoitlarda shakllanganini, qanday to‘siqlarga duch kelganini va tarixiy xotirani qanday tiklash mumkinligini anglash jarayonidir.

[4] Qahramon Rajabov. Turkiston muxtoriyati tarixi

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev merosi va milliy o‘zlik

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning tarixiy merosini bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, u huquqiy madaniyat va adolat g‘oyalarini ilgari surgan huquqshunos edi. Uning advokatlik faoliyati mahalliy aholining huquqlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, u milliy matbuot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. “Sadoi Turkiston” gazetasi orqali jamiyat muammolarini ommaviy muhokamaga olib chiqish, milliy ong va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qildi.

Uchinchidan, u siyosiy tashkilotchilik sohasida faol bo‘ldi. “Umid”, “Turon”, “Sho‘royi Islomiya” kabi tashkilotlar faoliyatida qatnashishi uning siyosiy qarashlari va tashkilotchilik salohiyatini namoyon etdi.

To‘rtinchidan, uning faoliyati milliy davlatchilik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq edi. 1917-yilgi siyosiy jarayonlarda qatnashishi va Turkiston Muxtoriyati bilan bog‘liq faoliyati Turkiston xalqlarining o‘z siyosiy kelajagini belgilashga intilganini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, uning merosi ma’rifat va milliy taraqqiyot g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Bugungi kunda jadidlar merosini o‘rganish jarayonida aynan mana shu jihatlarga e’tibor qaratish muhimdir. O‘zbekiston Respublikasida qatag‘on qurbonlari xotirasini tiklash, ularning nomlarini o‘rganish va tarixiy adolatni qaror toptirish borasida ishlar olib borilmoqda. Jumladan, rasmiy manbalarda ko‘plab qatag‘on qurbonlarining nomlari oqlangani va ularning merosini ilmiy tadqiq etish zarurligi qayd etilgan.

Tarixiy xotira — milliy o‘zlikni anglash omili

Tarixiy xotira tushunchasi xalqning o‘z o‘tmishini bilishi, ajdodlar tajribasidan xulosa chiqarishi va kelajakni ongli ravishda qurishi bilan bog‘liq. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev kabi tarixiy shaxslarni o‘rganish orqali yosh avlod milliy taraqqiyot tushunchasining mazmunini chuqurroq anglaydi. Chunki uning hayoti ilm olish, huquqni himoya qilish, matbuot orqali xalqni uyg‘otish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish kabi qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Tarixiy xotiraning yana bir muhim jihati — u milliy o‘zlikni stereotiplar orqali emas, real tarixiy dalillar asosida shakllantirishga yordam beradi.

Qatag‘on qurbonlarini xotirlashning asosiy maqsadi faqat fojeali voqealarni eslash emas. Muhimi, o‘sha avlod vakillarining qanday maqsad va orzular bilan yashaganini anglashdir. Jadidlar xalqning ilmli, ma’rifatli, huquqiy savodxon va zamonaviy jamiyat qurishini istaganlar. Ularning bu intilishlari bugungi ta’lim va ma’naviy tarbiya jarayonlari uchun ham muhim tarixiy saboq bo‘lib xizmat qiladi.

[5] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2000

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev ma’naviy merosining bugungi ahamiyati

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning hayoti va faoliyati bugungi avlod uchun bir nechta muhim ma’naviy saboqlarni beradi.

Avvalo, ilm va ma’rifatga intilish. U zamonaviy huquqshunoslik ta’limini egallab, olgan bilimlarini jamiyat manfaatlari yo‘lida qo‘llashga harakat qilgan.

Ikkinchi saboq — huquqiy ong. Uning advokatlik faoliyati huquqni bilish va qonuniy vositalar orqali inson manfaatlarini himoya qilish muhimligini ko‘rsatadi.

Uchinchi saboq — matbuot va so‘zning jamiyat hayotidagi o‘rni. “Sadoi Turkiston” orqali u xalqni ijtimoiy masalalar haqida fikrlashga, milliy taraqqiyot muammolarini anglashga undadi.

To‘rtinchi saboq — fuqarolik mas’uliyati. U 1916-yilgi mardikorlikka olish masalasida mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilishga intildi.

Beshinchi saboq — milliy manfaat va taraqqiyot uyg‘unligi. U milliy qadriyatlarni zamonaviy ilm, huquq va siyosiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan ziyolilardan biri bo‘ldi.

Oltinchi saboq — tarixiy xotiraning qadriga yetish. Uning taqdiri qatag‘on davrining naqadar murakkab bo‘lganini eslatadi. Tarixiy xotirani tiklash esa bunday fojealarning sabablarini chuqur anglash va ulardan saboq chiqarish imkonini beradi.

Xulosa

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev hayoti va faoliyati XX asr boshlaridagi Turkiston tarixining eng muhim va murakkab jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. U jadidchilik harakatining yirik vakili, huquqshunos, jurnalist, jamoat va siyosat arbobi sifatida milliy uyg‘onish jarayonida faol ishtirok etdi.

Uning “Sadoi Turkiston” gazetasini tashkil etishi milliy matbuot tarixida muhim hodisa bo‘ldi. Gazeta orqali ijtimoiy, ma’rifiy va siyosiy masalalarning keng jamoatchilikka yetkazilishi Turkistonda milliy fikrning rivojlanishiga xizmat qildi.

Ubaydullaxo‘janing huquqshunos sifatidagi faoliyati esa jamiyat taraqqiyotida qonun va adolatning o‘rnini anglashga asoslangan edi. 1916-yilgi mardikorlikka olish siyosatiga qarshi faoliyati uning xalq manfaatlarini huquqiy va siyosiy yo‘llar bilan himoya qilishga intilganini ko‘rsatadi.

1917-yilgi siyosiy jarayonlarda “Sho‘royi Islomiya” faoliyatidagi ishtiroki va Turkiston Muxtoriyati bilan bog‘liq siyosiy faoliyati uning milliy davlatchilik masalasiga bo‘lgan e’tiborini bildiradi.

Bugungi kunda Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev merosini o‘rganish — faqat bir tarixiy shaxs hayotini tiklash emas. Bu orqali milliy uyg‘onish, huquqiy madaniyat, ma’rifat, matbuot, siyosiy tafakkur va milliy davlatchilik tarixining muhim qirralarini anglash mumkin.

Qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish tarix oldidagi ma’naviy burchdir. Ularning hayoti va faoliyatini xolis ilmiy asosda o‘rganish yosh avlodda tarixiy tafakkur, Vatanga mas’uliyat va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularining shakllanishiga xizmat qiladi. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning hayot yo‘li shuni ko‘rsatadiki, milliy taraqqiyot bir kunlik jarayon emas. U ilmga intilish, ma’rifat, huquqiy ong, jamoat faolligi va xalq manfaatiga sadoqat kabi qadriyatlarning izchil rivojlanishi natijasida yuzaga keladi.

Shu ma’noda, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning nomi va ma’naviy merosi xalqimiz tarixiy xotirasining ajralmas qismi sifatida chuqur o‘rganilishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
2. Shamsutdinov R. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati va uning oqibatlari. — Toshkent.
3. Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati. — Toshkent.
4. Cho‘qay M. Istiqlol jallodlari. — Toshkent: 1992.
5. Pidayev T. Matbuot – millat chirog‘i. – Toshkent: 1999.
6. Begali Qosimov. “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoiylik” nomli monografiyasi
7. Sadoi Turkiston gazetasi.

8. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (1878–1937). Tarix.Uz tarixiy-ma’rifiy materiallari.
9. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.
10. Jadid.uz.